

TARG'IBOT KONTEKSTIDA SHAXS SIYOSIY QARASHLARI VA POZITSIYASINING YANGILANISHI

*Rustamov Ramz Rizoqulovich, Qarshi davlat texnika universiteti
dotsenti*



[https://orcid.org/0009-](https://orcid.org/0009-0001-7495-2384)

[0001-7495-2384](https://orcid.org/0009-0001-7495-2384)

e-mail:

[ramz.rustamov.81@mail.](mailto:ramz.rustamov.81@mail.ru)

[ru](mailto:ramz.rustamov.81@mail.ru)

UPDATE OF A PERSON'S POLITICAL VIEWS AND POSITION IN THE CONTEXT OF PROPAGANDA

*Rustamov Ramz Rizoqulovich, Associate Professor, Karshi State
Technical University*

ОБНОВЛЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ И ПОЗИЦИИ ЧЕЛОВЕКА В КОНТЕКСТЕ ПРОПАГАНДЫ

*Рустамов Рамз Ризокулович, доцент Кашинского
государственного технического университета*

Annotatsiya: Muallif mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda siyosiy-mafkuraviy targ'ibot kishilarining milliy mafaatlarga mos bo'lgan siyosiy qarashlari hamda pozitsiyasini shakllantirishga ulkan hissa qo'shayotganligi va mustaqillik yillaridagi targ'ibot xarakteridagi o'zgarishlar jamiyat a'zolari siyosiy qarashlari va pozitsiyasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga sovet davridagi siyosiy-mafkuraviy targ'ibot va uning oqibatlarini mustaqillik yillaridagi siyosiy-mafkuraviy targ'ibot va uning natijalari bilan taqqoslash orqali mavzuni yoritishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: targ'ibot, zamonaviy targ'ibot, siyosiy targ'ibot, mafkuraviy targ'ibot, shaxs siyosiy qarashlari, shaxs siyosiy pozitsiyasi.

Abstract: In this article, the author emphasizes that political and ideological propaganda in modern society makes a great contribution to the formation of peoples political views and positions that are consistent with national interests, and that changes in the nature of propaganda during the years of independence have had a serious impact on the political views and positions of members of society. At the same time, he tries to shed light on the topic by comparing political and ideological propaganda in the Soviet era and its consequences with political and ideological propaganda during the years of independence and its results.

Keywords: propaganda, modern propaganda, political propaganda, ideological propaganda, personal political views, personal political position.

Аннотация: В данной статье автор подчеркивает, что политическая и идеологическая пропаганда в современном обществе вносит большой вклад в формирование политических взглядов и позиций людей в соответствии с национальными интересами, а также, что изменения в характере пропаганды за годы независимости также оказали существенное влияние на политические взгляды и позиции членов общества. В то же время делается попытка пролить свет на эту тему, сравнивая политическую и идеологическую пропаганду и ее последствия в советское время с политической и идеологической пропагандой и ее результатами в годы независимости.

Ключевые слова: пропаганда, современная пропаганда, политическая пропаганда, идеологическая пропаганда, личные политические взгляды, личная политическая позиция.

KIRISH. Mustaqillik yillaridagi targ‘ibot xarakteridagi o‘zgarishlar jamiyat a’zolari siyosiy qarashlari va pozitsiyasiga ham jiddiy ta’sir ko’rsatdi. Bunga amin bo‘lish uchun sovet voqeligidagi siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot va uning oqibatlarini mustaqillik yillaridagi siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot va uning natijalari bilan taqqoslashning o‘zi kifoya.

Avvalo “shaxs siyosiy qarashlari” va “shaxs siyosiy pozitsiyasi” tushunchalariga bir qadar aniqlik kiritib o‘tsak. Shaxs siyosiy qarashlari uning siyosiy e’tiqodi va qadriyatlarining murakkab sintezidan tarkib topadi¹. Ta’rifdan ko‘rinadiki, uning ikki asosiy komponenti mavjud: 1) shaxs siyosiy e’tiqodi – uning muayyan ijtimoiy-siyosiy maqsadga ishonchi, shu asosda shakllangan tafakkur tarzi ifodasi²; 2) shaxs siyosiy qadriyatlar – uning uchun muayyan qimmatga ega bo‘lgan bilim va g‘oyalar, faoliyat normalari va tamoyillari³. Shaxs siyosiy qarashlari uning hokimiyatga, siyosiy jarayonlarga, butun jamiyatga munosabatini shakllantirishga qodir fenomen ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Har qanday shaxsning siyosiy pozitsiyasi uning aynan siyosiy qarashlari negizida yuzaga keladi. Shaxs siyosiy pozitsiyasi uning siyosiy voqelikka, jamiyatda kechayotgan siyosiy voqealar va jarayonlarga munosabatini ifodalovchi tushunchadir. Har qanday siyosiy pozitsiya ikki asosiy jihatni o‘zida mujassam qiladi. Birinchidan, u siyosiy jarayonlarni tushunish bilan bog‘liq kognitiv xususiyatlarni aks ettiradi. Ikkinchidan esa, unda shaxsning siyosiy voqelikka doir his-tuyg‘ulari va kechinmalari o‘z ifodasini topadi. Kishilar siyosiy pozitsiyasining ijtimoiy ahamiyati shundaki, u jamiyatdagi siyosiy vaziyatni yuzaga keltiruvchi omil vazifasini o‘taydi. Jamiyatda aniq va progressiv siyosiy pozitsiyaga ega bo‘lgan shaxslar ko‘paygani sayin ijtimoiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shishga ishtiyoqmand kishilar soni ham orta boradi. Bunday kishilar adolat, tenglik va erkinlik kabi g‘oyalarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan sa’y-harakatlarning

katalizatori bo‘lib qoladilar. Shunday qilib, shaxs siyosiy pozitsiyasi ijtimoiy taraqqiyot va o‘zgarishlarning muhim vositasi hisoblanadi⁴.

Shaxs siyosiy qarashlari va pozitsiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u bir necha omillarning birqalikdagi ta’siri ostida qaror topadi. Jumladan, har qanday insonning siyosiy qarashlari va pozitsiyasi avvalo ta’lim mahsulidir. Ta’lim shaxsning kognitiv rivojlanishini ta’minlaydi hamda tanqidiy tafakkurini yuksaltiradi. Sifatli va zamonaviy ta’lim odatda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mohiyatini chuqurroq anglab yetish imkonini beradi.

Har bir insonning siyosiy qarashlari hamda pozitsiyasi uning iqtisodiy ahvoliga monand ravishda qaror topishini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Tajriba ko‘rsatadiki, iqtisodiy ahvoli barqaror bo‘lgan, doimiy daromadga ega bo‘lgan, shu boisdan birmuncha sifatli umrguzaronlik qilayotgan shaxs liberal va ilg‘or g‘oyalarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Aksincha, moliyaviy resurslarining tanqisligi tufayli ehtiyojlarini qondirishga qiynalayotgan kishi konservativ kayfiyat ta’siriga tushadi – u an’anaviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘z manfaatlarini himoya qilishga urina boshlaydi. Nihoyat, insonning shaxsiy tajribasi ham uning siyosiy qarashlari hamda pozitsiyasida iz qoldiradi.

Biroq shaxs siyosiy qarashlari va pozitsiyasining mazmuni va xarakteriga, uning shakllanishi vektorlariga ta’sir ko’rsatadigan eng katta omil siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot bilan bog‘liq. Har qanday jamiyatda siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvini ta’minlaydigan asosiy mexanizmlardan biri vazifasini o‘taydi. Nazariy nuqtayi nazardan tavsiflaganda, siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot kishilarning siyosiy qarashlarini shakllantiradigan, siyosiy faoliyati xarakterini belgilaydigan hamda mavjud ijtimoiy-siyosiy rejimga munosabatini qaror toptiradigan omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunda u shaxsning maqbul siyosiy idroki va tafakkurini

¹ Қаранг: Мусиенко Т.В., Лукин В.Н. Система политических ориентаций личности как объект микрополитики. // Ученые записки Санкт-Петербургского филиала Российской таможенной академии имени В.Б.Бобкова, 2003, №1.- 438-453-с.

² Qarang: Shernazarov R.A. Shaxs siyosiy e’tiqodini shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati: Fals.d. (PhD) diss. avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2024.- B.11.

³ Қаранг: Барлыбаев А.А. Сущность политических ценностей.// Грамота, 2014, №12.- 24-27-с.

⁴ Қаранг: Мусиенко Т.В., Лукин В.Н. Система политических ориентаций личности как объект микрополитики.// Ученые записки Санкт-Петербургского филиала Российской таможенной академии имени В.Б.Бобкова, 2003, №1.- 438-453-с.

shakllantirish maqsadida ham aqliy-mantiqiy, ham hissiy ta'sir vositalaridan tizimli ravishda foydalanadi (bu jarayonni biz avvalgi bobda mufassal tavsiflab o'tdik). Lekin siyosiy-mafkuraviy targ'ibot turli jamiyatlarda turli siyosiy qarashlarni hamda pozitsiyani shakllantirishga yo'naltirilishi mumkin. Masalan, demokratik jamiyatlarda siyosiy-mafkuraviy targ'ibot fuqarolarda fikr va manfaatlar xilma-xilligini aks ettirgan siyosiy qarash va pozitsiyalarni shakllantirishga safarbar qilinadi. Bunday targ'ibot birinchi navbatda so'z erkinligi, qonun oldidagi tenglik, fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etish huquqi kabi demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. E'tiborlisi shundaki, demokratik jamiyatlarda siyosiy-mafkuraviy targ'ibot liberalizm va sotsial-demokratiyadan tortib konservativgacha bo'lgan g'oyalarni ommalashtirishga yo'naltirilishi mumkin⁵. Bunday targ'ibot nafaqat ayrim partiya yoxud siyosiy yetakchilarga sodiqlikni rivojlantirish, balki turfa fuqarolik tashabbuslarini namoyon qilish orqali demokratik jarayonlarni boyitish imkonini beradi.

Buning aksi o'laroq, totalitar jamiyatlarda siyosiy-mafkuraviy targ'ibot hukmron davralarga maqbul bo'lgan siyosiy qarashlar va pozitsiyalarni shakllantirishga qaratiladi. Uning davomida hukmron davralar mafkurasini ulug'lovchi afsonalardan faol foydalaniladi, kishilarni ushbu mafkura atrofida birlashtirish uchun tashqi dushman obraziga murojaat etiladi. Totalitar jamiyatlarda siyosiy-mafkuraviy targ'ibot muqobil qarashlarni obro'sizlantirish va muxoliflarni qatag'on qilish omili bo'lib ham xizmat qiladi⁶. Bu xususiyatlar sovet davridagi siyosiy-mafkuraviy targ'ibotda, uning kishilar siyosiy qarashlari va pozitsiyasiga ta'siri oqibatlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Sovet siyosiy-mafkuraviy targ'iboti kommunistik mafkurani yagona to'g'ri va ilmiy asosga ega bo'lgan ta'limot sifatida tavsiflab berishga urindi.

⁵ Карап: Мельникова Т.С. Пропаганда как технология политического манипулирования.// Власть, 2010, №8.- 47-51-с.

⁶ Карап: Свечникова С.В. Тоталитаризм и пропаганда.// Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2018, №1.- 39-42-с.

⁷ Qarang: Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosbatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. // O'zbekiston: milliy istiqlol,

Butun mamlakat bo'ylab tarqatilgan, ayrim hollarda esa mutlaqo bepul taqdim qilingan ilmiy-ommabop risolalarda kommunistik mafkuraning ishlab chiqilishi insoniyat tarixi davomida erishilgan eng katta muvaffaqiyat sifatida tavsiflandi. Targ'ibotchilar ming-minglab adabiyot va san'at asarlari yordamida faqat shunday mafkura asosida bunyod qilingan tuzumgina tinch va farovon hayot manbai bo'lishi mumkinligini, bunday tuzumni esa kommunistik g'oyalar ro'yobi uchun o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lgan odamlargina bunyod qila olishini tarannum etdilar.

Sovet siyosiy-mafkuraviy targ'iboti ta'sirida ko'plab kishilarda kommunistik qadriyatlarga sadoqat shakllandi. Ma'lumki, kommunistik mafkura negizini kishilarning mutlaq tengligi haqidagi g'oyalar tashkil qiladi. Mazkur qadriyatlar targ'ibotchilari kishilarning genetik, psixologik, intellektual, ijtimoiy, madaniy va boshqa xususiyatlari o'rtasida tafovutlar mavjudligini, shu boisdan ular o'rtasida mutlaq tenglik bo'lishi mumkin emasligini tan olmaydilar. Afsuski, targ'ibot ana shunday noto'g'ri siyosiy-mafkuraviy qarashlarning ham chuqur ildiz otishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin mutlaqo o'zgacha xarakterga ega bo'lgan siyosiy maqsad-muddaolarni, bilim va g'oyalarni targ'ib qilish, ular atrofida kishilarni birlashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Chunonchi, Islom Karimovning taklifi bilan mamlakatdagi keng ko'lamli islohotlarning pirovard maqsadi avval bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish⁷, keyinchalik esa ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush bunyod qilish⁸ bilan bog'landi. Islohotlarni amalga oshirish jarayoniga keng jamoatchilikni safarbar qilish uchun ushbu maqsad-muddao milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi sifatida ifodalab berildi⁹. "Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, - deb yozgan edi shu munosabat bilan Islom Karimov, -

iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.- T.:O'zbekiston, 1996.- B.274-359.

⁸ Qarang: Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Tom 8.- T.:O'zbekiston, 2000.- B.330-351.

⁹ Qarang: Karimov I.A. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasidagi so'zboshi.// Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Tom 9.- T.:O'zbekiston, 2001.- B.220-224.

eski mafkuraviy asoratlardan xalos bo‘lish, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, begona va yot g‘oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo qilmoqda”¹⁰.

TAHLIL VA NATIJALAR. Siyosiy maqsad-muddaolarning o‘zgarishi mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot xarakterini tubdan yangiladi. Xususan, davlat organlari tomonidan olib borilayotgan targ‘ibot ishlarida mamlakat tanlagan siyosiy maqsadlarning milliy manfaatlar bilan uyg‘un ekanligini e’tirof etishga urg‘u berila boshlandi. Bundan tashqari, butun o‘lka bo‘ylab siyosiy-mafkuraviy targ‘ibotni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yishga mas’ul tarkibiy tuzilmalar vujudga keldi. Bu tuzilmalar o‘z faoliyatini milliy o‘ziga xoslik, tarix, madaniyat asosida olib borishga odatlandi. Kishilarning fuqarolik jamiyatni institutlariga e’tibori va ishtirokining oshishi, yoshlarni barkamol fuqaro sifatida kamol toptirishning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi esa siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot sifatini oshirishga zamin yaratdi.

Milliy manfaatlarga mos bo‘lgan siyosiy maqsad-muddaolar va g‘oyalarning keng targ‘ib qilinishi kishilar siyosiy qarashlariga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, birinchidan, yangi xarakterdagi siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot kishilar ongi va ruhiyatini kommunistik g‘oyalari ta’siridan xalos qildi¹¹. *Ikkinchidan, siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot odamlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘ularining kuchayishiga olib keldi. Odamlarning milliy o‘ziga xoslik haqidagi tasavvurlari kengaydi, buning natijasida fuqarolarda umumiyy qadriyatlarni himoya qilish istagi kuchaydi*¹². Bu holat mamlakat tarixi va madaniyatiga tayangan yangi ijtimoiy-siyosiy harakatlarning vujudga kelishi uchun asos bo‘ldi. Uchinchidan, kishilarning mamlakat tarixiy-siyosiy tajribalari, institutlari, an‘analari haqidagi tasavvurlari rivoj topdi. Bu tasavvurlar sodir

bo‘layotgan siyosiy jarayonlar va ularning kishilar turmushiga ta’sirini chuqurroq anglash imkonini yaratdi¹³. Natijada jamiyatda yangi siyosiy bilim va g‘oyalarni o‘zlashtirishga moyillik vujudga keldi.

To‘rtinchidan, targ‘ibot sharofati bilan kishilarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl maqsadlari, unga erishish strategiyasi haqidagi tasavvurlari kengaydi. Odamlar islohotlar nafaqat iqtisod va siyosat bilan bog‘liq o‘zgarishlar, balki har bir fuqaroning hayot sifatini oshirish yo‘lidagi muhim qadamlar ekanini anglab yeta boshladilar. Islohotlarning maqsadi va borishi haqidagi ma’lumotlarning mutnazam ravishda taqdim etib borilishi aholi va davlat institutlari o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qildi¹⁴. *Beshinchidan, targ‘ibot odamlarning milliy xavfsizlikka tahdidlar haqidagi tushunchalarini kengaytirdi. Odamlar bunday tahdidlar nafaqat tashqi, balki ichki omillar natijasida ham vujudga kelishi, ular ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, turli qo‘poruvchilik harakatlari orqali kelib chiqishi mumkinligini anglay boshladilar*¹⁵.

Milliy manfaatlarga mos bo‘lgan siyosiy maqsad-muddaolar va g‘oyalarning keng targ‘ib qilinishi kishilar siyosiy pozitsiyasiga ham salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, *birinchidan, targ‘ibot sharofati bilan mamlakatda siyosiy jarayonlarni milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan baholaydigan kishilar ko‘paydi*. Odamlar milliy manfaatlarni mavhum konsepsiya sifatida emas, kishilarning kundalik turmushiga, hayoti farovonligiga ta’sir ko‘rsatadigan reallik sifatida qabul qila boshladilar hamda bu manfaatlarni siyosiy sa’y-harakatlar bilan qondirish mumkinligiga ishonch hosil qildilar. *Ikkinchidan, siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot vatanparvarlik harakatiga umummilliyl tus berdi. Vatan taqdiri uchun o‘zini mas’ul deb hisoblovchi fuqarolar salmog‘i keskin ortdi. Bu holat ayniqsa O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahririni tayyorlash jarayonidagi muhokamalarda yorqin namoyon bo‘ldi*¹⁶.

¹⁰ O‘sma manba.- B.220.

¹¹ Qarang: Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. 1-kitob.- T.:Ma’naviyat, 2018.- B. 458-475.

¹² Qarang: Qurbonov T. Milliy g‘urur.- T.:Dimal, 2024.- B.6-24.

¹³ Qarang: Ernazarov D., Ernazarov D. Siyosiy ta’lim va uning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari. // Gumanitar va ijtimoy fanlar, 2022.

¹⁴ Qarang: Abdumuxtorov A. Islohotlar samarasi bilan go‘zal. // uza.uz, 2019, 11 oktabr.

¹⁵ Qarang: Rahmatova D. Geosiyosiy raqobat sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minalash konsepsiyalari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Fals.d. diss. avtoresf.- Buxoro: BuxDU, 2021.

¹⁶ Qarang: Tojiyev O. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi xalqimizdan kelib tushgan takliflar asosida takomillashtirilmoqda. // uza.uz, 2022, 1 oktabr.

Uchinchidan, targ‘ibot natijasida mamlakatda davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlovchi kishilar soni ortdi. Davlat institutlari tomonidan oqilona targ‘ibot ishlarining tashkil etilishi, uning davomida mamlakatdagi islohotlar natijasining xolis ifodalab berilishi jamoatchilik kayfiyatida tub o‘zgarishlarni sodir qildi: kishilar mamlakat rahbari va hokimiyat amalga oshirayotgan sa’y-harakatlarni umumiy holda ma’qullay boshladilar. *To ‘rtinchidan*, targ‘ibot ta’sirida O‘zbekistonning barcha viloyatlarida siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga moyil kishilar davrasi kengaydi. Bu holat 2024-yil 27-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi mobaynida ham ko‘zga tashlandi. Xususan, Markaziy Saylov komissiyasi ma’lumotlariga qaraganda, unda 15 million 27 ming 529 nafar saylovchi yoki jami saylovchilarning 74,72 foizi ishtirok etdi¹⁷. *Beshinchidan*, ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi siyosiy kuchlarga va guruhlarga salbiy munosabat shakllandi. Jumladan, mamlakatda “xalqaro terrorizm va ekstremizm o‘zida siyosiy, iqtisodiy, hududiy, ma’naviy, axloqiy va diniy xarakterdagi muammolarni mujassamlashtirgan tobora murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisaga”¹⁸ aylanayotganini yaxshi tushunadigan kishilar ko‘payib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ko‘rinib turibdiki, mustaqillik yillarida siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot mazmuni va institutsional tuzilmalari batamom o‘zgardi, uning xarakteri va yo‘nalishlarida ham yangi aspektlar vujudga keldi. Bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, shaxs siyosiy qarashlari va pozitsiyasida jiddiy va ijtimoiy ahamiyatga molik evrilishlarni vujudga keltirdi.

Mamlakatda paydo bo‘lgan siyosiy e’tiqodi degradatsiyaga yo‘liqqan, siyosiy tafakkuri stagnatsiyaga uchragan, milliy manfaatlardan yiroq normalarni o‘z siyosiy pozitsiyasi asosiga aylantirgan kishilar soni o‘zining kritik nuqtasiga yetgani yo‘q: ular sezilarli darajada kamchilikni tashkil qiladi. Lekin yurt siyosiy-mafkuraviy xavfsizligini ta’minalashdek muhim strategik vazifa ana shu kamchilikning yuzaga kelganiga ham jiddiy e’tibor berishni, ularni milliy manfaatlarni qondirish

yo‘lida faoliyat ko‘rsatayotgan jamoatchilik safiga qaytarish choralarini ko‘rishni taqozo qiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy jamiyatda siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot kishilarning milliy mafaatlariga mos bo‘lgan siyosiy qarashlari hamda pozitsiyasini shakllantirishga ulkan hissa qo‘shdi. Biroq destruktiv siyosiy-mafkuraviy targ‘ibotning siyosiy e’tiqodi degradatsiyaga yo‘liqqan, siyosiy tafakkuri stagnatsiyaga uchragan, milliy manfaatlardan yiroq normalarni o‘z siyosiy pozitsiyasi asosiga aylantirgan kishilar toifasini yuzaga keltirayotgani tashvish uyg‘otmasdan qolmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мусиенко Т.В., Лукин В.Н. Система политических ориентаций личности как объект микрополитики.// Ученые записки Санкт-Петербургского филиала имени В.Б.Бобкова Российской таможенной академии, 2003, №1.- 438-453-с.
2. Shernazarov R.A. Shaxs siyosiy e’tiqodini shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati: Fals.d. (PhD) diss. avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2024.- B.11.
3. Барлыбаев А.А. Сущность политических ценностей.// Грамота, 2014, №12.- 24-27-с.
4. Мусиенко Т.В., Лукин В.Н. Система политических ориентаций личности как объект микрополитики.// Ученые записки Санкт-Петербургского имени В.Б.Бобкова филиала Российской таможенной академии, 2003, №1.- 438-453-с.
5. Тарасов М.М., Кырлан М.Г. Экономические аспекты положения личности в демократическом и автократическом государстве. // Вестник Евразийской науки, 2023, Т.15, №с2.
6. Мельникова Т.С. Пропаганда как технология политического манипулирования.// Власть, 2010, №8.- 47-51-с.
7. Свечникова С.В. Тоталитаризм и пропаганда.// Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 2018, №1.- 39-42-с.

¹⁷ Qarang: Komilova M. Saylov natijalari e’lon qlindi.// uza.uz, 2024, 28 oktabr.

¹⁸ Axmedov T. O‘zbekistonda ekstremizmga qarshi kurash borasidagi yondashuvlar konseptual jihatdan o‘zgar-moqda.// uza.uz, 2021, 6 aprel.

8. Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosbatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. // O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.- T.:O‘zbekiston, 1996.- B.274-359.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz.// Tom 8.- T.:O‘zbekiston, 2000.- B.330-351.
10. Karimov I.A. “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasidagi so‘zboshi.// Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. Tom 9.- T.:O‘zbekiston, 2001.- B.220-224.
11. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. 1-kitob.- T.:Ma’naviyat, 2018.- B. 458-475
12. Qurbanov T. Milliy g‘urur.- T.:Dimal, 2024.- B.6-24.
13. Ernazarov D., Ernazarov D. Siyosiy ta’lim va uning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari.// Gumanitar va ijtimoy fanlar, 2022.
14. Abdumuxtorov A. Islohotlar samarasi bilan go‘zal.// /uza.uz, 2019, 11 oktabr.
15. Rahmatova D. Geosiyosiy raqobat sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlash konsepsiyalari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Fals.d. diss. avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2021.
16. Tojiyev O. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi xalqimizdan kelib tushgan takliflar asosida takomillashtirilmoqda.// uza.uz, 2022, 1 oktabr.
17. Komilova M. Saylov natijalari e’lon qlindi.// uza.uz, 2024, 28 oktabr.
18. Axmedov T. O‘zbekistonda ekstremizmga qarshi kurash borasidagi yondashuvlar konseptual jihatdan o‘zgarmoqda. // uza.uz, 2021, 6-aprel.

